



Fidoyilik –
Vatanga xizmat demak!

1913-yil aprel oyidan chiqqa boshlagan



DEPUTAT SO'ROVI SAYLOVCHILAR FIKRINI IFODALAYDI

mas'ullar unga e'tibor bilan qarashi lozim

**21-fevral kuni xalq deputatlari viloyat Kengashining navbatdagi, yettingchi sessiyasi o'tkazildi.
Sessiyani Kengash raisi Sh.Negmatov boshqardi.**

Dastlab deputatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 29-noyabrdagi "Samarqand viloyati investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori ijrosi yuzasidan viloyat hokimining o'rinsbosari – investitsiya sanoat va savdo boshqarmasi boshlig'i O.Hamroevning hisobotini tingladilar.

Qayd etilishicha, mazkur qaror bilan O.Hamroev rahbarlik qilayotgan kompleksga viloyat uchun muhim ahamiyatiga ega 18 ta topshiriq berilgan bo'lib, shu payt-gacha ularning 6 tasi bajarilgan. 12 ta topshiriq bo'yicha ishlardan olib boilmoga.

Jumladan, qarorga ko'ra, joriy yilda 1.8 milliard AQSh dollarini miqdorida xorijiy investitsiya kiritish va kreditlar jalb qilish orqali 129 ta hududiy investitsiya loyhalarini amalga oshirish hamda 850 million dollarlik mahsulotni eksportga chiqarish belgilangan. Loyihalarining choraklar kesimida tarmoq jadvallari ishlab chiqilib, loyiha tashab-buskorlari, tijorat banklari hamda investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi tomonidan tasdiqlandi. Bugungi kunda ushbu loyhalarining kunlik tarmoq jadvallari ham ishlab chiqilmogda. Shu bilan bir qatorda, viloyatda investitsiya loyhalar bilan manzilli ishlash bo'yicha tarkibi 21 kishidan iborat hududiy shtab tuzilgan. Yilning dastlabki oyida 33 ta loyiha bo'yicha 101 million AQSh dollarini miqdorida xorijiy investitsiyalar va kreditlar o'zlashtirildi. Belgilangan eksport rejasini bajarish uchun 100 ta yangi korxona jaib etiladi, an'anaviy bozorlar o'rniiga Yevropaning yuqori qiymatli Germaniya, Fransiya, Italya, Buyuk Britaniya kabi davlatlariga eksport hajmlari oshiriladi.

Shundan so'ng viloyat mahalliy budjetining 2024-yildagi ijrosi bo'yicha viloyat iqtisodiyat va molnya bosh boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinsaro B.Mirzakov hisobot berdi.

Hisobotda keltirilishicha, o'tgan yil viloyat mahalliy budjetining umumiy daromadlar prognоз rejasiga 5 trillion 278,7 milliard so'mga (103 foiz) bajarilgan. Xarajatlar esa 102,6 foizga ijob etilib, 7 trillion 769,3 milliard so'mni tashkil etgan. Xususian, ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoyalash xarajatlari uchun 4 trillion 977,5 milliard so'm mablag' miolyalashtirilgan.

Kun tartibiga ko'ra, Majburiy ijob byurosi viloyat boshqarmasi boshlig'i S.Jabborovning boshqarmaning 2024-yildagi faoliyatini yuzasidan hisoboti tinglandi.

– 2024-yil davomida MIB viloyat



www.zarnews.uz  https://www.facebook.com/zarnews.uz  @zarnews_uz  https://twitter.com/zarnews_uz

2025-yil 22-fevral, shanba,
22 (24.048)-son

O'zbek xalq
maqoli

Yurtni
dedim,
yuzga
kirdim



Sport federatsiyalaridagi muammolar:

Natijalar qoniqarsiz, homiylar biriktirilmagan, terma jamoaga sportchilar yetkazib berilmayapti

Yaqinda Prezident raisligida 2028-yilgi Olimpiya va Paralimpika o'yinlariga tayyorgarlikni kuchaytirish, ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish masalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishida badminton, yadro, disk, nayza uloqtilish, sakrash, yengil atletika, suv sporti, o'q otish va yana bir nechta sport turlari bo'yicha natijalar qoniqarli emasligi tanqid qilingan edi.



XO'SH, SAMARQANDDA-CHI?
AHVOL QANDAY?

Sport turlariga e'tibor qaratilyaptimi, sport federatsiyalarining natijalari qoniqarli, homiylar biriktirilgan, sport federatsiyalari terma jamoaga sportchilari yetkazib beryaptimi? Bu savollarga viloyatdagi sport federatsiyalari mas'ullaridan javob oldidi.

VOLEYBOL SPORT KLUBI NEGA
TASHKIL ETILMAYAPTI?

Viloyatda 24 ta olimpiya, 4 ta milliy, 35 ta noolimpiya sport federatsiyasi faoliyat ko'satmoqda. Jumladan, voleybol sport turidan 91 nafer murabbiy qo'l ostida 2800 nafer o'g'il-qiz shug'ullanadi. Voleybol federatsiyasi viloyat bo'limi ijrochi direktori G'olib Maxsumovning ta'kidlashicha, O'zbekiston milliy terma jamoasi tarkibiga uch nafer sportchi qabul qilingan bo'lsa, keyingi yillarda terma jamoaga sportchilar yetkazib berilmayapti. Chunki sportchilarning shug'ullanishi uchun baza yo'q, federatsiya uchun bino ajratilmagan, sport jihozlari yetishmaydi.

- Qaysidir tashkilot musobaqlarini tashkil etishda yordam so'rasha, faqat musobaqa nizomini tuzib beramiz va hakamlik qilamiz, - deydi G'.Maxsumov. - Doimiy musobaqlar o'tkazish, safar turnir-



larida qatnashish va yuqori natijalarga erishgan sportchilarni taqqirlashga mablag' yo'q. Biz esa jamaatchilik asosida ishlaymiz, xodimlarga maosh tugul, rag'batlantrish ham berilmaydi. Shunday bo'lsa-da, yoshlarning qiziqlishi va ularning sport formasida bo'lishi uchun imkon darajasida sport maktablarini trenerlari hamkorligida musobaqlarini o'zimiz tashkil qilamiz.

- Prezidentimizning 2024-yil 19-iyundagi "Voleybol sport turlarini yanada rivojlantrish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga ko'ra, Samarqandda iqtidorli sportchilarni saralash tizimini yaxshilash, voleybol sport turi bo'yicha zamonaivi sport infratuzilmasini yaratish hamda milliy terma jamoalarimizning nufuzli sport musobaqlarida yuqori natijalarga erishishini ta'minlash maqsadida voleybol sport klub tashkil etilishi kerak edi, - deydi voleybol bo'yicha viloyat terma jamoasi bosh murabbiy Yo'rabeck Nabiiev. - Biz qaror asosida ushbu klub faoliyatini yo'nga qo'yish maqsadida viloyat sport boshqarmasiga loyiha tayyorlab berdik. Loyerha viloyat hokimligiga taqdim etilgani aytildi. Biroq oradan bir yil vaqt o'tgan bo'lsa-da, masala suvg'a cho'kkani tosh kabi jumib ketdi.

(Davomi 3-sahifada) >>>

Obod va
xavfsiz mahalla 

"QIZIL"

"YASHIL"

ga

AYLANISHI UCHUN...

Yoxud osoyishtalik faqat inspektorga kerakmi?

– Meni uya kiritib qo'yishingiz kerak.

Toyloq tumani ichki ishlar bo'limi huquqbazarliklar profilaktikasi bo'limi boshlig'i Jahongir Nazarov qabuliga kirgan ayol birato'la maqsadga o'tdi. Uning aytishicha, oilasidagi notinchliklarga qaynonasi sababchi, o'zi beayb ekan. Qizig'i, u yaqinda qaynonasiga tan jarohati yetkazganligi uchun jinoiy javobgarlikka tortilgan. Jazoni ijob etib bo'lgach, sud qarori asosida qaynonasining uyiga qayta kirib, "himoya orderi" ham olmoqchi. Savollarimizga javob berarkan, orada "7 yildan beri shu "ish"ning ichida yuribman, ko'zlarim pishib ketgan", deyga miyig'ida kulib qo'yadi.



Unga ko'ra, erining uydagi barcha qarindoshlari unga dushman, eri ham nikoh asosida boshqa ayol bilan yashashni boshlagan. Shunday bo'lsa-da, u o'sha uya kirmoqchi. Suhbat davomida angladikki, u buni oilasini tiklab, tinch-totuv yashash uchun emas, balki tugallanmay qolgan "ish"ini tugatish va qasos olish uchun qilyapti. Albatta, profilaktika inspektori kunu tun uni eridan, erini esa undan qo'rilaq yura olmaydi. Agar hozir qonun ustuvorligi ta'minlanib, ayol uya majburan kiritib qo'yilsa, ertaga yangi jinoyat sodir bo'imasligiga kafolat yo'q. Bu paradoks, shundaymi?

(Davomi 2-sahifada) >>>

“QIZIL” “YASHIL” ga AYLANISHI UCHUN...

Yoxud osoyishtalik faqat inspektorga kerakmi?

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Keyingi yillarda mamlakatimizda jinoyatchilikning oldini olish, huquqbuzarlik sodir etilishiga sabab bo'layotgan ijtimoiy-maishiy muammolarni profilaktika qilish hamda aholida shaxsiyit hissini shakllantirish masalalariga e'tibor ortidi. "Xavfsiz shahar", "Obod va xavfsiz mahalla" singari qator loyihalar ishlash chiqilib, mahallalar "qizil", "sariq" va "yashil" toifalarga ajratildi. Biroq tahlil va kuzatuvarlar barcha sa'y-harakatlarga qaramay, joylarda huquqbuzarliklarning ma'lum turi (asosan og'ir jinoyatlar) kamaysa-da, boshqalar ko'payganligini ko'rsatmoqda. Xo'sh, buning sababi nima? Va muammo qanday hal qilinadi? Toyoq tumani misolda vaziyatni o'rganishga harakat qildik.

“YASHIL” DAN “QIZIL” GACHA BIR QADAM

Tumanda 50 ta mahalla bo'lib, ayni kunda shundan 11 tasi "qizil" toifaga kiritilgan. Bu har beshta mahalladan birida kriminogen vaziyat yomon, degani. Jumladan, Charog'bon mahallasi o'tgan yilning yakunigacha "yashil" toifada edi. Biroq ketma-ket sodir etilgan bir nechta og'ir jinoyat uning "yuz"ini ham "qizil" qildi.

Mahallamiz markazda joylashganligi uchun doimo odamlar bilan gavjum, - deydi mahalla raisi Matluba Amirova. - Hududda qator ijtimoiy obyektlar, bozor, 365 ta tadbirkorlik subyekti, 21 ta ko'p qavatlari uy bor. Shu bois huquqbuzarliklarning profilaktikasida murakkabliklarga duch kelyapmiz. To'g'ri, tegishli dasturlari ijrosi bo'yicha barcha ishlar amalga oshirildi. Xususan, ko'chalarimizdagi tungi yorishchi chiroqlari o'rnatilgan, 8 ta ko'cha kamerlashtirilish, ichki ishlar bo'linmasiga ulangan. Ko'chaboshlari tayinlangan. Biroq bu yetarli bo'lmayapti. Aholimiz ko'p, kelib-ketuvchilar ham. Birgina profilaktika inspektorining o'zi ularni nazorat qila olmaydi.

Mahalla profilaktika inspektori Dilshod Murodullayev ushbu lavozimiga tayinlanganiga hali ko'p bo'lmagan. U hudud va undagi kriminogen vaziyatiga ta'sir qiluvchi omillarni o'rganayotganligi, vaziyatni to'liq bilmay oldindan biror xulosa bildira olmasligini ma'lum qildi. Bu to'g'ri qaror. Noprofektur xodim bo'lganida edi, "Ayb menda emas, odamlarning o'zi sababchi", deya muammoni o'zidan soqit qilishga urinardi. Inspektorga e'tirozimiz yo'q. U mahallada hali "begona". Muammoning ildizini topishi, qolaversa, odamlarning ishonchiga kirishi uchun vaqt kerak.

“YO'L XARITASI” NATIJA BERADIMI?

Yaqinda shu mahallada Ichki ishlar vaziri Po'lat Bobojonov ham bo'lib, tuman sektor rahbarlari bilan hududda jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar va "mahalla yettiligi" faoliyati bilan tanishdi. Jarayonda mahallada huquqbuzarliklarning profilaktikasini tashkil etish maqsadida tuzilgan "Yo'l xaritas" muhokama qilinib, uning ijrosiga bo'yicha qator tavsija va topshirilgan berildi.

Bu tartib birgina Charog'bonga taalluqli emas. Endi barcha mahallalarda kriminogen vaziyatni barqarorashtirish hamda yangicha yondashuvlar asosida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish tizimi yaratilishi belgilangan. Uning doirasida joylarda "Xavfsiz va raqamli mahalla", "Namunalni xavfsiz ko'cha", "Xavfsiz bozor", "Xavfsiz bekat", "Huquq-tartibot maskani", "Xotin-qizlar orasida

jinoyatchilikning barvaqt oldini olish" bo'yicha namunali tizimlar yo'nga qo'yildi. Ichki ishlar vazirligi tomonidan profilaktika kichik inspektori, migrations profilaktika bo'linmalari, ma'muriy amaliyat guruhlari va profilaktika bosh inspektori lavozimlari joriy qilinadi.

— Tumanimizda tegishli qaror ijrosi bo'yicha ishlar allaqachon boshlangan, - deydi Toyoq tumani ichki ishlar bo'limi huquqbuzarliklarning profilaktikasi bo'limi boshlig'i Jahongir Nazarov. - Xususan, mahallalarimizni 16 hududga bo'lgan holda profilaktik nazorat tadbirlarini o'tkazayapmiz. Kechki vaqtida ham navbatchi xodimlar ko'chama-ko'cha yurib, fuqarolarning halovatini ta'minlaydi. Aytmoqchi bo'lganim, xodimlarimiz doimo xalq orasida va xizmatga



shay. Biroq hali ham ba'zi hollarda fuqarolar huquqbuzarliklarning yashirishga yoki u sodir bo'lingandan keyingina xabar berishga moyil. Agar teskarisi bo'lganida, huquqbuzarlik profilaktikasida jamoatchilik ham faol bo'lganida, maqsadimizga tezroq erishgan bo'lar edik.

“YASHIL” MAHALLA FAQAT INSPEKTORGA KERAKMI?

Mavzuni o'rganish, fuqaro va mas'ullar bilan suhbatlashish davomida ba'zi xulosalarga keldik. Aytaylik, biz borgan aksars "qizil" toifadagi mahallalarda huquqbuzarliklarning markazda yoki serqatnov yo'li yoxasida jinoyatishni ko'rsatilmoqda. Go'yo ulardagi barcha jinoyatishlar qilgan. Lekin mahallalarni toifaga ajratish vaqtida bu inobatga olinadi-ku, ya'ni oldini olish mumkin bo'lgan huquqbuzarliklarning soniga qarab xulosa qilinadi, adashmasak. Avariya, joy va makon tanlamaydigan firibgarliy ko'rrorpusi harakatlar singari holatlar inobatga olinmaydi.

Ikkinchidan, nega hududda huquqbuzarlik sodir etilsa, bosh aybdor sifatida profilaktika inspektori ko'ridi. To'g'ri, joylarda kriminogen vaziyat barqarorligini ta'minlashga qaratilgan qaror va boshqa hujjatlarida jarayonga mas'ul bo'lganlar ro'yxati uzun bo'ladi. Lekin kuzatuvarlarni bu vazifalar amalda faqat nozir zimmasida qoldirilayotgani, hatta mahalla raisi ham muammoning asl mohiyatini anglamayotganini ko'rsatmoqda.

Vaziyatni aniqroq tushuntirish uchun misol keltiramiz. Aytaylik, spirtli ichimliklarga ruju qo'yan er xotini bilan kelishmoshchilik vaqtida unaq og'ir tan jarohati yetkazdi. Bu holatda yarashtirish haqidagi gap ketmaydi, darhol jinoyat ishi ochiladi. Xo'sh, jinoyatda inspektori aybdormi? Ko'pchilik, ha aybdor, deydi. Boisi u notinch oila bilan profilaktik tadbir o'tkazishi, lozim bo'lsa, erni davolatishi, qayta tarbiyalashi, ayolni himoya qilishi kerak ekan. To'xtang, unda mahalla raisi, xotin-qizlar faoli, ijtimoiy xodim nima qiladi? Inspektori mahalladan tayinlangan, ya'ni u xizmat joyidagi fuqarolarga begona. Hech kim unga dardini aytmaydi, uyiga kirmoqchi bo'lsa, hujjat so'raladi. Rais yo'bosha faollardan kimdir hujjat so'radimi? Albatta, yo'q. Holbuki, ular o'sha erkakning nega ichkliklarga berilganligi (to'g'ri yo'nga qaytarilmagan), ishsizlikdan qiynalayotganligi (yordam berilmagan), xotinining tili yomonligini ham bilishadi (janjalning oldi olinmagan). Bu gap o'sha oilanining qo'shnilarini, yaqinlari, qarindoshlariga ham taalluqli.

Xulosa qilib aytganda, jinoyat bir soniyada sodir bo'ladi. Ammo u yillar davomida "pishib" keladi. Endi tasavvur qiling, bitta mahallada shunga o'xshash 10 ta oila bor (amalda bundan ko'p bo'ladi). Ularga vaqtida, kerakli odamlar tomonidan berilganligi yordam hozir qilinsa, notinch oila bir zumda namunaliga aylanli qoladimi? Yo'q. Uni sog'alomlashtirish uchun ham yillar kerak. Ba'zan bu imkonliz ham. Maqola boshida tilga olingan "qasoskor" kelin vaziyatidagi.

Muammo yechimsiz emas. Faqat u bir yo ikki kishi bilan yechilmaydi. Befarqlik ortarkan, jinoyatchilik kamaymaydi.

Asqar BAROTOV,
"Zarafshon" muxbir.



Yoshlarning bandligini ta'minlash, kasb-hunar va tadbirkorlikka o'qitish, umuman, qiziqishiga qarab sohalarga yo'naltirish yoshlar hayotida muhim o'rinn tutadi. Bu jarayonda mahalladagi yoshlar yetakchilari yigit-qizlarni qo'llab-quvvatlab, o'z salohiyati va iste'dodini namoyish etishi uchun ko'priko'lishi kerak.

Urgut tumanidagi O'zbekiston mahallasi yoshlar yetakchisi Diyorbek Akbarov ayni vazifani sidqidildan bajarmoqda. Shuningdek, u yosh maslahatchilar kengashi raisi o'rnbosari, Oly Majlis Senati huzuridagi Yoshlar parlamenti a'zosasi sifatida yoshlar muammolarini hal etish, ularni qo'llab-quvvatlash borasida jonbozlik ko'rsatib kelmoqda.

Diyorbek 2024-yilda "Yilning eng namunali mahalla yoshlar yetakchisi" ko'rik-tanloving "Yoshlarning tadbirkorlik g'oyalarni amalga oshirishda va bandligini ta'minlashda samarali ko'maklashgan eng namunali mahalla yetakchisi" yo'nalishida g'olib bo'lgan.

YOSHLARGA «KO'PRIK» BO'LAYOTGAN YETAKCHI

Bir yilda yoshlar bandligini ta'minlashda katta o'sish

42 NAFAR BITIRUVCHI ISHLI BO'LDI

— O'tgan yil faoliyatimni boshlaganman, — deydi Diyorbek Akbarov. — Mahallamiz drayveri xizmat ko'satisi va dehqonchilikka ixtisoslashgan, hududda 6865 nafar aholi yashaydi, ularning 1932 nafarini yoshlar tashkil etadi. Mahallaga kelib, ishsiz yoshlar ro'yxatini shakllantirdim va qiziqishi, imkoniyati, oilavlyi holatini tahsil qildim. Natijada yoshlarning 1253 nafari "yashil", 676 nafari "sariq", 12 nafari "qizil" toifaga ajratildi. Dastlab yoshlarga kasb-hunar o'rgatish, qisqa muddati kurslarga yo'naltirish, malaka oshirish dasturlarini tashkil etish va ular uchun ish o'rinalarini yaratish maqsadida mahalladagi tadbirkor, hunarmand va fermerlar bilan hamkorlik yo'nga qo'yilib, ularga 42 nafar maktab va kasb-hunar maktabi bitiruvchilar birkirtildi. Natijada o'quv yili oxirida birkirtilgan yoshlarning bandligi ta'minlanib, doimiy daromad manbaiga ega bo'lishiga erishildi.

Diyorbekning aytishicha, ayni paytda yana 65 nafar yosh turli sohalar bo'yicha tadbirkorlarga birkirtilgan va ular o'qish bilan bir vaqtida doimiy daromad topib, tadbirkorlik faoliyatini ham o'rganmoqda. Jumladan, shu mahallada yashovchi Jahongir Ravshanov, Muhammadali Hasanov va Akobir Bo'ronov tumandagi yetakchi tadbirkorlardan ish o'rganib, hozirda "Urgut" savdo kompleksida savdo d'konlari tashkil qilishgan va ikkitadan ish o'rnini yaratgan.

10 TA TADBIRKORLIK SUBYEKTI TASHKIL ETILDI

— Mahallada yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida hokim yordamchisi bilan hamkorlikda 2024-yilda 45 nafar yoshga kredit olib berildi, — deydi Diyorbek. — Shundan 16 nafariga "Bisnesga birlinchi qadam" dasturi orqali 80 million so'm, 3 nafariga "Kichik va o'rta biznesni rivojlantirish" dasturi orqali 260 million so'm, 26 nafariga esa "Oilay tadbirkorlikni rivojlantirish" dasturi orqali 295 million so'mni kredit ajratildi. Natijada 10 ta yangi tadbirkorlik subyekti tashkil etilib, 2 tasi faoliyati qayta tiklandi.

BANDLIK DASTURI AMALDA

O'tgan yil "Bandlik dasturi"ga mahalladagi 140 nafar yosh kiritilgan bo'lib, shundan 50 nafari ishsiz, 90 nafari bitiruvchi edi. Dasturga kiritilgan 47 nafar yosh Vazirlar Mahkamasini huzuridagi Biznesna tadbirkorlik olyi maktabi Samargand viloyati filialida o'qishga yo'naltirilgan, 25 nafar yosh savdo-sanoat palatasini yordamida tadbirkorlikka olib o'quv dasturlarini tamomlagan va 20 nafardan ziyyod maktab bitiruvchisi doimiy ish o'rinaliga yolashtirilgan. Shuningdek, dastur doirasida to'rt nafar bitiruvchiga o'zini o'zi band qilishi uchun zarur yordam ko'rsatilgan, 10 nafar ishsiz yoshga kredit ajaratilgan, 40 nafar yoshning bandligi ta'minlangan.



10 NAFAR YOSH XALQARO TIL BILISH SERTIFIKATINI QO'LGA KIRITGAN

O'zbekiston mahallasi yoshlari o'tgan yil davomida "Ibrat academy" ilovasi orqali xorijiy tillarni o'rganish yarayonida katta muvaffaqiyatga erishdi. Jumladan, 10 nafar yosh xorijiy tillini o'rganib, xalqaro sertifikatlarini qo'lga kiritgan. Yoshlar yetakchisining tashhabusi bilan xorijiy tillertiklari olgan yoshlardan iborat "Ibrat farzandlari" jamoasi tuzilgan. Ushbu jamoaning asosiy vazifasi mahalladagi yoshlar o'ttasida xorijiy tillarni o'rganishni targ'ib qilish va til o'rganishga qiziqgan yoshlarni qo'llab-quvvatlashdir.

Ayni paytda jamoada faoliyat ko'rsatilayotgan 11-sinf o'quvchilari Islombek Jamolov va Umidjon G'ulomov mahalladagi ijtimoiy himoyaga muhtojo, iqtdorli va til o'rganishga qiziqqan 48 nafar yoshga ingliz tilini bepul o'rgatmoqda. Shuningdek, 10-sinf o'quvchisi Xislatbek Umarov o'quv kursi tashkil qilib, ta'lim olish bilan birga, daromad manbaiga ham ega bo'lmoxda.

MAQSADIMIZ – SHOHSUPAGA KO'TARILISH, YOSHLAR BANDLIGINI TA'MINLASH VA XORIJY TILLARNI O'RGANISH

Diyorbek Akbarov 2025-yil uchun o'zining aniq va maqsadli rejalarini ishlash qiziq, muhim tashabslarni amalga oshirishni maqsad qilgan.

— Joriy yil yoshlar bandligini ta'minlashda va ularning hayotini yaxshilashga yo'naltirilgan yangi loyihalarni amalga oshirishni rejalsatishirganman, — deydi Diyorbek. — Jumladan, "Besh tashhabus olimpiadasi" doirasida tanlov va musobaqalarining respublika bosqichida kamida 5 ta yo'nalish bo'yicha yuqori o'rinalarni egallash asosiy maqsadlarimizdan biri. Shu bilan birga, maktab va olyi ta'lim muassasalarini bitirayotgan 115 nafar yoshning bandligini ta'minlash, "Ibrat academy" ilovasi orqali xorijiy tillarni o'rganish va "Ustoz Al" ilovasi orqali mahallada zamonaviy kasblarni bepul o'rganish tizimini ommalashtirish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, migratsiya ketgani 178 nafar yosh bilan tizimli ishlash va yil oxirigacha 80 nafardan ziyod yoshni yurtga qaytarib, ish bilan ta'minlash belgilangan.

Fazliddin RO'ZIBOYEV,
"Zarafshon" muxbir.

Samarqandda tayyorlangan mahsulotlar dunyoning

65 davlatiga sotildi

O'zbekistonda ishlab chiqarilgan mahsulotlar dunyoning 80 dan ortiq davlatiga eksport qilinmoqda. Jumladan, viloyatimizdan eksport qilingan mahsulotlar 2024-yilda 65 davlatga sotildi. O'tgan yilning o'zida 13 ta yangi bozor o'zlashtirildi.

Raqamlarga qaraydigan bo'lsak,

2024-yilda viloyatimizdan 716,2 million dollarlik mahsulotlar Xitoy, Turkiya, Qozog'iston, AQSh, Rossiya va boshqa davlatlarga eksport qilindi. 15 ga yaqin yangi turdagani mahsulotlar eksportga chiqarilib, ularning hajmi qariyb 30,1 million dollarni tashkil etdi.

Xitoy Xalq Respublikasiga eksport hajmlarini yanada oshirish maqsadida ushbu davlatning bo'zulma xizmati ro'yxtigiga 22 ta eksportchi korxonalar kiritilishi da amaliy yordam ko'rsatilib, ular tomonidan bugungi kunga qadar 11,8 million dollarlik mahsulot eksporti amalga oshirilishi erishildi.

Eksport faoliyatiga yangidan

eksport hajmini 850 million dollarga yetkazish rejalashtirilgan. Buning uchun 100 dan ortiq yangi korxonalar eksport faoliyatiga qo'yildi. Jumladan, qisqichbaqa, konditsioner, sanxentnika fittinglari, sanoatda foydalilanligan tuz mahsulotlari, mis kabellari, konservalangan tayyor taomlar hamda o'simliklari

Sport federatsiyalaridagi muammolar:

Natijalar qoniqarsiz, homiylar biriktirilmagan, terma jamoaga sportchilar yetkazib berilmayapti

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

BADMINTON OLIMPIYA SPORTI TURI, AMMO...

Badminton olimpiya sport turiga kiradi. Federatsiyaning viloyat bo'limi 2014-yilda tashkil etilgan bo'lib, shug'ullanish uchun baza ajratilgan.

- Hozirgi kunda 25 nafar trener-o'qituvchi qo'l ostida 1300 nafardan ziyyod yoshlar badminton bilan shug'ullanib kelmoqda, - deydi badminton federatsiyasi viloyat bo'limi ijrochi direktori Marat Muhammadiyev. - Federatsiya tomonidan respublika terma jamoasiga bor-yo'g'i 2 nafar sportchi yetkazib berilgan. Chunki aksariyat hududlarda kadrlar, sport jihozlari yetishmaydi. Homiylar biriktirilmagan va mablag' yo'qligi uchun musobaqaqlar ham deyarli tashkil etilmaydi. Viloyatda badminton sport turini rivojlantirish borasida tajiqot ham olib boryapman. Jumladan, yaqinda badminton bilan shug'ullanuvchilar uchun "Badminton" mobil ilovasi va "Badminton academy" onlays platformasini yaratdim. Ushbu platformalar orqali innovatsion usulda ushbu sport turini o'rganish mumkin. Biroq mashg'ulotlarni amalda bajarish talab etiladi va buning uchun qulay sharoit bo'lishi kerak.

SPORT MAKTABLARIDA REGBI YO'NALISHI NEGA YO'Q?

Regbi federatsiyasining viloyat bo'limi 2017-yilda tashkil etilgan. Biroq 2020-yilda faoliyat boshlagan. Ayni paytda 10 nafar trener qo'l ostida 200 nafarga yaqin yoshlar shug'ullanadi. Viloyatda mazkur sport turini ixtisoslashgan maxsus baza yo'q, homiylar yo'q. Shu sababli mashg'ulotlarni amalda bajarish imtiroq etiladi va buning uchun qulay sharoit bo'lishi kerak.

Regbi sport turi bo'yicha viloyat terma jamoasi bosh treneri Zafar Berdiqulovning ma'lum qilishicha, sakkiz yillik faoliyat davomida regbi bo'yicha milliy terma jamoanining asosiy va zaxira tarkibiga 12 nafar sportchi qabul qilingan, xolos. Ush-

bu olimpiya sport turining rivojlanmayotganiga asosiy sabab viloyatdagi aksariyat sport maktablarida regbi sport turi yo'nalishi yo'q va trenerlarga shtat ajratilgan.

Federatsiyalar reytingiga ko'ra, dzyudo, eshkak eshish, yunon-rum kurashi, yengil atletika, gimnastika, kurash va sambo sport federatsiyalari yaxshi natija ko'sratyotgan bo'lsa, 20 ga yaqin sport turi - basketbol, suzish, gandbol, penchak silat, erkin kurash, qilichbozlik, ot sporti, voleybol, sportning texnik va o'q otish, tennis federatsiyalari qoniqarsiz natija qayd etmoqda. Misol uchun, o'q otish federatsiyasining viloyat bo'limi bir yildan beri faoliyat ko'sratyotgan bo'lsa, keyingi yillarda kikboksing, shotakan karate, o'zbek jang san'ati federatsiyalari O'zbekiston milliy terma jamoalarini tarkibiga sportchi yetkazib bermayapti.

Sport federatsiyalaridagi ushbu muammolar yechimi, ularning monitorini bo'yicha ma'lumot olish uchun viloyat sporti boshqarmasiga murojaat qildik. Afsuski, "Federatsiyalar alohida tashkilot, bizga qaramaydi, ularni nazorat qiluvchi tashkilot biriktirilmagan" degan javobdan boshqa hech narsa ololmadik.

Aytish joizki, sport federatsiyalaridagi viloyatdagi sektor rahbarlari, mutasaddi tashkilot mas'ullari va sportchi-trenerlar biriktirilgan. Ammu ular jamoatchilik asosida ishladi. Shuning uchun musobaqalar o'tkazish, shug'ullanish uchun bazalar yo'qligi, sportchilarni rag'batalnirish, sport anjomlari va kadrlar bilan bog'liq muammolar yuzaga kelmoqda. Shuningdek, federatsiyalarining faoliyatini monitoring qiladigan tashkilot yo'q. To'g'ri, federatsiyalar nodavlat tashkilot, lekin ularga imtiyozlar berilmagan, qo'shimcha grantlar, rag'batalnirishni nazarida tutuchi me'yorlar ham belgilamagan. Xillas, ushbu muammolarni aytgan bilan amalda hal qilinmasa, muammoligicha qolaveradi.

Fazliddin RO'ZIBOYEV.



O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakil (ombudsman) instituti Mustaqil davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari orasida birinchilardan bo'lib, 1995-yil 23-fevralda tashkil etilgan.

Mazkur institut Oliy Majlisining siyosiyo qo'llab-quvvatloviga tayyani va fuqarolar huquqlarining davlat organlari hamda ularning mansabдор shaxslari tomonidan o'z vakolatlari suiste'mol qilishdan himoya qiluvchi demokratik institut sifatida namoyon bo'ladi.

O'titz yillik darr mobaynida Vakil institutining vakolatlari, uning ish uslublari, fuqarolar huquq va erkinliklari himoya qilish milliy tizimidagi o'rn va roli takomillashib bordi.

Oxirgi yillarda O'zbekistonda davlat va jamiyat qurilishining barcha sohalarda tub islohotlarning amalga oshirilishi Vakil institutiga katta mas'uliyat yulkadi. O'savbatida institutning faoliyat yo'nalishlari ham takomillashib bormoqda.

Jumladan, 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi

OMBUDSMAN – INSON HUQUQLARI HIMOYASIDA

Ombudsman institutini rivojlantirishning muhim bosqichi bo'ldi.

2019-yil 14-martda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi Qonunga o'zgartish va qo'shimchalar kiritilib, Vakil institutining vakolatlari, xususan, jazoni ijo etish muassasalarida saqlanayotgan shaxslarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha vakolatlari yanada kengaytirildi. Shuningdek, qiyonoqlar va boshqa shafqatsiz, g'ayriinsony yoki qadr-qimmatni kamitsuvchi muomola va jazo turlarining oldini olishga qaritigan chora-tadbirlar tizimi joriy etildi.

Qonunga ko'ra, Vakilga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyavingi sudaiga ko'rib chiqishi uchun masalalar kiritish huquqi berildi. Fuqarolarning manfaatlarini ko'zlab, davlat boji to'lamagan holda ariza va da'volar bilan sudlarga murojaat qilish, davlat organlari va boshqa tashkilotlarning huquqlarini qilishga qaratigan huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-sodiy va boshqa chora-tadbirlari o'z ichiga olgan maxsus ma'ruzalar taqdim etish huquqiga ega. Jazoni ijo etish muassasalarida saqlanayotgan mahkumlar endi Ombudsmaniga u yerlarda o'matiligan "Ombudsman qutisi" orqali murojaat qilish imkoniyati yaratildi. Vakillik davlat organlari va idoralariga fuqarolarning huquqlari buzilganligi yuzasidan ogholantirish, taqdimgirma, ittimosnomaga va tablonoma kiritishi belgilab qo'yildi.

Davlatimiz rahbarining 2021-yil 10-sentyabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi qonungi qiluvchi muvofig, 2022-yildan buyon Vakilning viloyatlarda mintaqaviy vakillari doimiy asosda faoliyat yuritib kelmoqda.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 98-moddasiga muvofig, Ombudsman qonunchilik tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Qonunchilik palatasiga qonunchilik takolatlari kiritish huquqiga ega bo'ldi.

2024-yil 15-novabrda "O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) to'g'risida"gi yangi Qonun qabul qilindi. Qonun bilan Ombudsmanning va kolatlari kengaytirilib, vazifalari belgilandi.

Ushbu qonunga ko'ra, Ombudsman O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Oliy Majlis palatalari va Vazirlar Mahkamasiga fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratigan huquqiy, tashkiliy, ijtimoiy-sodiy va boshqa chora-tadbirlari o'z ichiga olgan maxsus ma'ruzalar taqdim etish huquqiga ega. Jazoni ijo etish muassasalarida saqlanayotgan mahkumlar endi Ombudsmaniga u yerlarda o'matiligan "Ombudsman qutisi" orqali murojaat qilish imkoniyati yaratildi. Vakillik davlat organlari va idoralariga fuqarolarning huquqlari buzilganligi yuzasidan ogholantirish, taqdimgirma, ittimosnomaga va tablonoma kiritishi belgilab qo'yildi.

Otabek TOSHIKOYOZOV,
Oliy Majlisining inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman)ning Samarqand viloyatidagi mintaqaviy vakili.

Xotira uyg'onsa go'zal ✓

Professor qator yillar SamDUda tashkil etilgan filologiya markazi boshlig'ining o'rinosbasari, SamDUChTI nemis filologiyasi fakultetining dekanı o'rinosbasari, kafedra mudiri, ma'rifat va ma'naviyat ishlari bo'yicha prorektor lavozimlarida faoliyat ko'satdi.

Domla turmush o'trog'i, dozent Sayyora Obloqulova bilan ikki o'q'il va ikki qizni voyaga yetkazdi. Nabirasi Amira Ibadova ularning izidan borib, filologiya fanlari bo'lib, o'z ichiga falsafa doktori bo'ldi.

Berdiquyl Tursunov shogirdilari nisbatan qattiqqo'vila talabchan bo'lsa-da, dilkash inson edi. Shu bois, uning xoritasi institut professor-o'qituvchilariga va shogirdlari o'rtaida samimiyat va ehtirom bilan yodga olinadi.

Muxtor BEGMATOV, filologiya fanlari nomzodi, professor.

REKLAMA, E'LNOLAR, BILDIRISHLAR / Gazetamiz haftada uch marta - seshanba, payshanba va shanba kunlari chop etiladi / Gazetada chop etilayotgan reklama va e'lonlar tezkor, samarali va hamyonbop / MUROJAAT UCHUN TELEFON: 66-233-91-56

DA'VOLAR BO'LSA...

Jomboy tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Mamatqulov Otabel Bolbekovich notarial idorasida marhum Tursunova Sharapat Muxtarovnaga (2021-yil 23-martda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Mamatqulov Otabel Bolbekovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Jomboy tumani Saroy ko'chasi, 15-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshbaltayevich notarial idorasida marhum Muxsinov Abdusulay Xamidovichga (2022-yil 25-yarvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Norqulov Kamoljon Toshbaltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Norqulov Kamoljon Toshbaltayevich notarial idorasida marhum Muxsinov Abdusulay Xamidovichga (2022-yil 25-yarvarda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Norqulov Kamoljon Toshbaltayevich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Rudakiy ko'chasi, 126-uy, 4-xona.

Payariq tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasida marhum Atamuratov Pulat Javidovichga (2023-yil 29-dekabrdan vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Ortiqboyev Aziz Azamatovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Payariq tumani Chelak shaharchasi, Istiqloj ko'chasi, 73-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Jo'rayev Kamoliddin Muhibiddinovich notarial idorasida marhum Nazarov Shirmamedga (2006-yil 13-iyunda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Jo'rayev Kamoliddin Muhibiddinovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri O'zbekiston ko'chasi, 35-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Rustamov Istan Ishankulovichga (2021-yil 1-sentabrdan vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Bog'dod ko'chasi, 31-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasida marhum Tursunov Istam Ishankulovichga (2021-yil 1-sentabrdan vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Yusupova Iroda Rustamovna notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Farhod ko'chasi, 34-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Yusupova Dilsura Hasanova notarial idorasida marhum Mamatqulov Musaga (2018-yil 6-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Yusupova Dilsura Hasanova notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Xakimova Urakga (2018-yil 6-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Beruniy ko'chasi, 200-uy, 3-xona.

Samarqand shahrida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasida marhum Xakimova Urakga (2018-yil 6-avgustda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Murtazayev Sherzod Sobirovich notarial idorasiga murojaat etishlarini so'raymiz.

Manzil: Samarqand shahri Abdurahmon Jomiy ko'chasi, 64-uy.

Past Darg'om tumanida xususiy amaliyot bilan shug'ullanuvchi notarius Hamidov Norbek Komil o'g'li notarial idorasida marhum Alikulov Xayrullo Mamaraximovichga (2023-yil 7-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Xayrullo Mamaraximovichga (2023-yil 7-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning Xayrullo Mamaraximovichga (2023-yil 7-oktabrda vafot etgan) tegishli mol-mulk uchun meros ishi ochilmoqda. Shu munosabat bilan merosxo'larning X

"Nazorat kuchli ekan", "Ayollarning erkak hamrohsiz kirishi mumkin emas", "Hududida musiqa qo'yish yoki tinglashni man qilish talab qilinibdi".
Ikki qo'shni xalq – o'zbek va afg'onlar o'rtaisdagi do'stlik, samimiyat va hamkorlik belgisi sifatida bonyod etilgan Termiz xalqaro savdo markazi atrofida yana qanday gap-so'zlar bo'lmadi, deysiz. Xo'sh, ular qanchalik haqiqatga yaqin? Samarqanddan Termizga, xalq tilida "afg'on bozori" nomi bilan mashhur o'sha markazga borish osonni yoki qiyin? U yerda nimalarni xarid qilish mumkin? Buni aniqlash uchun Surxondaryoga yo'i oldik.

SAMARQAND – QASHQADARYO – SURXONDARYO

Ozgina geografiyaga to'xtalimiz. Surxondaryo viloyati respublikamizning janubi-sharqidagi Surxon-Sherobod vodisida joylashgan bo'lib, janubdan Amudaryo bo'ylib Afg'oniston, shimol, shimoli-sharq va sharqdan Tojikiston, janubi-g'arbdan Turkmaniston bilan chegaradosh. 20,1 ming kilometr kvadrat maydonining asosiy qismi, reliefi tog' va tekisliklardan iborat. Surxondaryo va Sheroboddaryo oqib o'tadigan tekislik shimol, g'arb va sharqdan baland Hisor tizmasi va uning tarmoqlari bilan o'ralgan.

Aytiganidek, safardan maqsad bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga borib, bozorni ko'rib qaytish emas, balki unga borish yo'lining "past-baland"lарini ko'rib, taassurotlarimizni o'rtoqlashish edi. Shu bois yo'iga yengil avtomobil bilan chiqdik.

Transportimiz Samarqand shahridan kunduzgi 9:00 larda harakatlanti. Yo'il boshlovchi ilova Termiz shahrigacha 370 kilometr masofa borligini ko'rsatadi. Samarqand tumani orqali Qarshi yo'liga tushib oldik. Magistrall yo'il sizi to'g'ri Termizga olib boradi. Agar yo'lda to'xtamasangiz, 7 saatlik masofa. Ammo buning deyarli iloji yo'q. Ayniqsa, Qashqadaryo tog' tizmalarini, qir-adirliklarining go'zalligiga mahliyo bo'lib, yo'ldan qolganining payqamay qolasiq. Yo'il yonalab joylashgan savdo shoxobchalaridagi turli noz-me'matlardan (qish bo'lishiha qaramay, istagan mahsulotingizni topasiz) tabit ko'rgizing keladi. Odamlarining samimiyatidani ko'nglingiz yorishadi.

Hozirdagina palakdan uzungandek turgan tarvuzni ham shu yo'lda uchratdik. Qashqadaryoning Chiroqchi tumani Galabek qishlog'ida yashovchi dehqonlar qishning chillasida ham, ko'klamda ham tarvuz sotishadi.

Bizda tarvuz oktabr oyining 5-10-sanalarida yig'ishtirib olinadi, - deydi Bayman ota Hasanova. - Keyin tepailiklardan yerto'la qaziyimiz.

Yerto'laning ichki qismi kengaytirilib, xandak hosil qilinadi. Taruzlar shu xandaka solinib, uesti tupoq bilan qoplanadi. Ular uzoq vaqt sifati buzilmay turishing bosqha bior siri yo'q. Ota-bobolarimiz shunday qilishgan, biz ham. Balki yerimizing o'ziga xos xususiyatli bordir. Lekin bizning tajribani qo'llagan boshqa hech yera tarvuz bunchalik yaxshi saqlanganligini ko'radim.

Bayman ota yerto'lalari da 10 mingta tarvuz ko'mgan ekan. Hoslining asosiy qismini sotib bo'libdi. Uning aytishicha, bosqha viloyatlardan atay tarvuz olish uchun keladigan odamlar ham bor. Kimdir dardman yaqini uchun, bosqalar homilador xotini yo' kelini uchun, bosqalar homilador xotini yo' kelini uchun yo'il bosib keladi. Lekin shu vaqtgacha hech kim qurq qo'il bilan qaytman ekan. Otaxonning o'zi kuniga 50 tagacha tarvuz sotayotganini aytdi. Narx masalasiga kelsak, insof sari baraka, katta-kichikligiga qarab 10 ming so'midan 25 ming so'mgacha tarvuz topasiz.

YORQIN RANGLARGA BURKANGAN TOG'LAR

Surxondaryo nomining kelib chiqishiga oid turli farazlar bor. Lekin bu farazlarning deyarli barchasida nom tarjimasida "qizil" so'zi ishlatalidi. Xususan, O'zbekiston joy nomlari izohli lug'atida Surxondaryo dastlab, ehtimol, Surxob, deya atalgan, deyildi.

Forschadan tarjima qilinganda "qizil daryo" degani.

Bu nomi unga naqad mosligini Surxondaryoda bo'lganlarga tushunadi. Qashqadaryoni chegaralab, Surxon vohasiga kirib boranskits, tog'u toshlar, yengri rangi ham o'zgarib borayotganligiga guvoh bo'lasiz. Ayniqsa, osmon bilan bo'yashgan tog'larning turli ranglarda jilolanishi kishini hayratga soladi. Bu ranglar ichida qizil rang usturlik qiladi, albatta. Shu bois ham undan oqib tushuvchi jilvalar qizg'ish bo'lib, atrofqa o'ziga xos ulug'voriлик baxsh etib turadi.

Aynan shunday taassurotlar bilan Surxondaryoning mashhur Sherobod anor bozoriga yetib keldik. Magistrall yo'il yoqasida joylashgan bu bozorcha o'zining qirmizi anorlari bilan mashhur.

AFG'ONISTON

CHEGARASIDAGI
BOZOR

UNGA BORISHINGIZ UCHUN BESHTA SABAB BOR



— Shu tumanning Tarog'li mahallasida turaman, - deydi Ismat Sanayev. - Mahallamizda barcha anor yetishtirish bilan shug'ullanadi.

Shaxsan o'zimda 15 sotixda 150 tup anor bor. Ulardan har yili 5 ton-nagacha hosil olaman. Bizda anorlar sho'suv ichadi. Shuning uchun bo'lsa kerak, ta'mi o'zgacha totti, saqlanishi ham yaxshi. Oilam bilan bir kunda 3 million so'mgacha savdo qilyapmiz. Yo'lovichilar doim bozorcharimiza to'xtab o'tadi.

Anor bozorining atrofi gavjum. Odamlar anorlari shu yerning o'zi da tatib ko'rishga oshiqadi. Biz ham bu imkoniyatni qo'ldan boy bermadik. Haqiqatan anorning mazasi og'izda qoladigan.

Harakatni davom ettirakanimiz, navbatdagi tabiat mo'jizasi – xorij kinolari da ko'rganimizdan ham chiroyli kanyonlar bizni qarshiladi. Bu betakror manzaraga boqib, o'z yurtimiz, uning go'zal tabiatini haqidagi deyarli hech nimani bilmasligimizni angladik. Ko'plab kilometrlarga cho'zilgan bu qizil kanyonlarning o'zi har qanday sayyoohni loi qoldirishi turgan gap.

Alohiba e'tirof etilishi kerak bo'lgan yana bir jihat, bu Surxondaryodagi deyarli barcha ko'chalarning ravonligidir. Buni ayniqsa, haydovchilar juda qadralashadi. Yo'il tekisligi bir qulaylik bo'lsa, ularning kengligi yana bir qulaylikdir. Xullas, ikki kun vohada, tor yoki xizmatini o'tab, ilma-teshik bo'lgan ko'chani ko'rmadik. Holbuki, magistrall yo'lining Dehqonobod (Qashqadaryo) tumani dan o'tuvchi qismida bo'larimiz bo'lgandi.

KO'CHALARDA ODAM KAM

Termizga kech tushganda kirib kelik. Mehmonxonalar ko'p, joylashish qiyin bo'lmadi. Lekin Termizning tungi ko'chalariga moslashish bir oz qiyin kechdi. Sababi Samarqand shahri ko'chalarini yarim tunda ham gavjum bo'ldi va biz shunga o'rgangan ekanmiz. Tungi Termizni ko'rish uchun sayrga chiqqanimizda, piyoda yurgan odamlar juda kam edi. Transport vositalari ham bizdagidan karrasiga kam.

Bir tarafдан noqulay bo'lasiz, ikkinchi tarafдан halovatni his qilasiz. Tungi sokinlik kunduz kuni ham ko'p buzilmaydi.

Ma'lumotlarga ko'ra, Termiz so'zi Tarmita, u esa qadimgi baqtir tilidagi "tararamastxa" (taro maetha) so'zidan olingen bo'lib, "daryoning narigi qirg'og'idi manzilgoh" ma'nosini anglatadi. Ba'zi manbalarda Termizning tarixi miloddan awvalgi davrlarga bog'lanadi. Bu qadimiy manzilgoh hozir yurtimizning eng janubiy qismida joylashgan shahardir. Va uning tarixi doim Amudaryo va daryoning narigi qirg'og'ida yashovchi xalqlar bilan uzyvi bog'liq bo'lgan.

Bugun ham Termiz ko'chalarida afg'onistonlik qardoshlarimiz ko'rishning mumkin. Aytaganizdek, mehmonxonalar ko'p va ularning doimiy mijozlari orasida qo'shni xalq vakillari ham bor. Bilishimizcha, keyingi yillarda afg'onistonlik tadbirkorlara Turmaza ham qator loyihiylarni amalgan oshirib, ikki davlat o'tasidagi o'zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishda faol ishtirok etishmoqda ekan.

BOZORGA KIRISH OSON, CHIQISH QIYIN

Safarimizning ikkinchi kuni Termiz xalqaro savdo markaziga yo'il oldik. O'zbekiston va Afg'oniston chegarasidagi Hayraton ko'priji yaqinida qurilgan savdo majmuasiga birgina pasport yoki ID karta yordamida

rasmiy qayddan o'tib kirasis. Transportda bo'lsangiz, bojxonka ko'rigidan o'tkaziladi, bunda ham muammo yo'q. Xuddi shunday afg'onlari bu markazga vizasiz, faqat pasport bilan kirishadi.

Bozorda ikki davlat fuqarolari uchun mehnemonxona, shifoxona, tamaddixon va boshqa xizmat ko'rsatish shoxobchalarini bor. 120 gektar yerni egallagan majmuuda 500 tacha do'kon borligi aytildi. Bugungi kunda bu do'konlarning deyarli barchasi egalli, savdo esa avjida.

Biz markazga kirib boranamiz, unda mahalliy aholi dan ko'ra afg'onistonliklarning ko'p ekanligi e'tiborimizni tortdi.

Ko'pchiilik savdo bilan band, yana kim-lardir yashil maysazorda, quyosh surida chordona qurib o'tribidi, boshqalar o'rindiqlarda farzandlari bilan hordiq chiqaryapti. Va asosiyasi, barcha muloqotga ochiq, samimiy suhabat yoki intervju berishdan hech kim qochmaydi.

Do'konlarni aylanlar ekanmiz, bu yerda ham shunday muhitni ko'dik. O'zbek va afg'on suruvchilari yonna-yon, qo'shni do'konlarda savdo qilishmoqda. Afg'on do'konlari barcha suruvchilar o'zbek tilini yaxshi biladi. Bemalol mahsulot narxiga tortishishingiz, xullas, o'zimizdagidek jaydaricha bozor qilishningiz mumkin.

— Bu bozordan do'kon ochganimizga 4 oycha bo'ldi, - deydi Mozori Sharifdan kelgan Shermuhammad Nazariy. - Ikkiti do'konni olgammiz, har ikkisida asosan afg'on milliy kiyimlari, gilamlarini sotamiz. Ularni o'z seximizda ishlash chiqaramiz. Savdo sunay qayin qulishan boryapti.

Yana bir afg'onistonlik Hamid ismili suruvchi urgutli tadbirkorlar tomonidan yuritilayotgan do'konda suruvchi bo'lib ishlashini aytadi. Ular taklif qilayotgan uyo'zgor buyumlari, elektron texnikalar har ikki tomon xaridorlari uchun qiziq ekan.

— Afg'onistonlik elektron texnikalar asosan Xitoy va Pokiston orqali kirib keladi, - deydi u. - O'zbekistonidan juda kam. Do'konimizga kelganlar bu yerdan mahsulotlar ancha arzon ekanligini aytishmoqda. Xaridorlar soni ham shunga mos ravishda ortib boryapti. Hamyurtlarim asosan isitish pechlar va sovutkichlarga qiziq bildiryapti.

— Besh oydan beri shu bozorda oziq-ovqat do'konini yuriyapmiz, - deydi Toshkent shahridan kelgan tadbirkor Dadaxon O'r'inboyev. — Asosiy maqsadimiz mahsulotlarimizni afg'onistonlik xaridorlarga tanishtirish. Ularning ehtiyoj va takliflarini o'rgangan holda mahsulot eksportini yo'iga qo'ymoqchimiz. Markaz afg'onistonlik tadbirkorlar bilan hamkorlikni yo'iga qo'yish uchun ham muhim minbar hisoblanadi.

Sotuvchi va xaridorlar bilan muloqot davomida aniq bo'ldiki, Afg'onistonga bosqaga davlatlardan eksport qilinayotgan mahsulotlarning ayrimlari bozordagidan ancha arzon. Shunga qaramay, ular O'zbekiston mahsulotlarini afzal ko'rishmoqda. Buning asosiy sababi ularning sifatida ekanligi aytildi. Ya'ni, bizning mahsulot

sifatliroq. Shuningdek, ayrim oziq-ovqat mahsulotlari, xususan, tuxum Afg'onistonidanidan ancha arzon. Shu bois aksar afg'onistonlik xaridorlari boshqa yushman bilan kelsa-da, qaytishda tuxum olib ketishadi.

Texnika masalasiga kelsak, afg'onistonlik xaridorlarning aytishicha, Afg'on chegarasida uning kilogrammi hisoblanadi. Har bir odamga ma'lum kilogramm yukni o'tkazishga ruxsat beriladi. Shu bois katta texnika, jumladan, muylatich olish uchun bir olladan 3-4 kishi keladi. Bu uning vaznini o'rta teng bo'lish imkonini beradi.

Bozorni bir kunda aylanib chiqish qiyin, ayniqsa, biz uchun afg'onistonliklarning do'konlarini chetlab o'tish qiyin bo'ldi. O'zingizni Afg'onistonda yurgandek, sayyohdekk his qilasiz. Shuning uchunmi, bozorni tark etgingiz kelmadik.

AFG'ON BOZORINI KIM "EGALLAYDI"?

Endi bu bozorning ahamiyati haqida to'xtalsak. Ma'lumki, taxminan 40 million aholiga ega va uning qariyb 45 foizi qishloq xo'jaligidagi band bo'lgan Afg'oniston bugun ko'plab davlatlar uchun jozibali bozor hisoblanadi. Uzoq yillik notinchikkordan so'ng dunyoga ochilish, savdo-sotiqni rivojlantirish afg'onlarning o'zi uchun ham muhim, albatta. Ammo bu yurtda hali sanato rivojlannagan, 20-30 milliard dollarlik iqtisodiyotga ega katta bir mamlakat hozir asosan importga bog'lanib qolgan. Eksportga quritigan meva, dorivor o'tlar, foydal qazilmalar, sabzavotlar, jun, paxta va boshqa sanoqli mahsulotlar chiqariladi, xolos.

Ma'lumotlari keyingi yillarda mamlakatning asosiy savdo hamkorlariidan biri - Pokiston bilan o'zaro savdo hajmi pasayganini ko'rsatmoqda. Bu esa yangi yo'nalish — O'zbekiston, Qozog'iston, Hindiston va

Xitoy bilan savdo aloqalarini kengaytirishni taqzo etadi. Xususan, O'zbekiston bugun Afg'onistoniga asosan maishiy texnika, oziq-ovqat (ayniqsa, tuxum), turli sanoat mahsulotlari, un, bug'doy va sement yetkazib bermoqda.

Bu hamkorlikda O'zbekistonning ek-sport ulushi 90 foizdan oshdi. Ya'ni, importor Afg'oniston hisoblanadi. Shunga qaramay, afg'on bozori hali ham to'g'ri ma'noda "och" deyish mumkin.

Bu bozordan muqim o'rinni olish endi avjiga chiqmoqda. Shularni tahlil qilsangiz, yuqorida tanishilgan bozorning har ikki tomon uchun hani nechog'lik ahamiyati ekanligini anglaysiz.

Bunday savdo yo'nalishlarini yanada kengaytirish zarurligini tushunasisiz. Tadbirlari ishbilarmonlarimiz bu yo'nalishda allaqachon harakatni boshlagan. Ammo bu zilar hali ham o'ya.

Aytish joizki, afg'on xalqi dunyoga ochilishga harakat qilar ekan, kommuniksya tarmoqlari ham kengayib boraveradi. Jarayonda o'z muqim o'rniqimza ega bo'lishimiz esa nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy jihatdan muhim hisoblanadi. Buni raqobatchilarimiz yaxshi bilishadi. Shu bois ham O'zbekiston, Afg'oniston va Pokiston o'tasida qurilishi kerak bo'lgan transafq'on temir yo'li loyihasi necha yillardan beri dunyo diqqat markazida turibdi. Agar bu loyiha amalga oshsa, o'zaro savdo hajmi hoziridan yuzlab baravarga ortishi mumkin. Bu ham yaqin kelajakda yangi maqola ma'zuvi bo'ldi, degan umiddamiz.

Xulosa qilib aytganda, Surxondaryodagi ayni bozor bugun ikki xalq o'tasidagi do'stona munosabatlari va tijoriy hamkorlikning amaliy ifodasi hisoblanadi. Uning atrofidagi gap-so'zlar esa fuqarolarimiz, xususan, tadbirkorlarda ham u haqda noto'g'ri tasavvur shakllanishi ga sabab bo'imoqda. Biz bozorda bo'ldik va boshqalarga ham uni o'z ko'zlar bilan ko'rishni tavsiya qilamiz. Qolaversa, Surxondaryo ham sayyohlarini zeriktirib qo'ymaydi.

Anvar MUSTAFOQULOV,
Asqar BAROTOV,
"Zarafshon"ning maxsus muxbirlari.

(Samarqand – Qashqadaryo – Surxondaryo – Samarqand)



MUASSIS: Samarqand viloyati hokimligi

Bosh muharrir: Farmon TOSHEV

Gazeta O'zbekiston matbuot va axborot agentligining Samarqand viloyat boshqarmasida 2025-yil 30-martda 09-01 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr 100. Indeks 438. 14 246 nusxada chop etildi. Buyurtma 91. Hajmi 2 bosma taboq,